



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 2-dekabr

688-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 15-noyabrdagi “O‘quvchi-yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorlash tizimini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ–393-sonli qarorini shu mazmundagi viloyat hokimining 2024-yil 28-noyabrdagi 573-6-0-Q/24-sonli qarori ijrosi haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘quvchi-yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorlash tizimini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 15-noyabrdagi PQ–393-sonli qarorini, shu mazmundagi viloyat hokimining 2024-yil 28-noyabrdagi 573-6-0-Q/24-sonli qarori ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 15-noyabrdagi PQ–393-sonli qarori ijrosi yuzasidan, viloyat hokimining 2024-yil 28-noyabrdagi 573-6-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va amalda ijrosini ta‘minlash uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 15-noyabrdagi PQ–393-sonli qarori qarori bilan:

Mudofaa vazirligi, Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligining yoshlarni yuksak vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning vertikal tizimini yaratish orqali o‘quvchi yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorlash tizimini yangi bosqichga olib chiqish to‘g‘risidagi quyidagi takliflariga rozilik berilganligi;

a) 2025/2026-o‘quv yilidan boshlab umumiy o‘rta (Prezident, ijod, ixtisoslashgan ta‘lim muassasalari) ta‘lim tashkilotlarida (keyingi o‘rinlarda-ta‘lim tashkilotlari) chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik (keyingi o‘rinlarda CHQBT) fani nufuzini oshirish va CHQBT rahbarlari faoliyatini muvofiqlashtirish yuzasidan yangi tizimni joriy etishi, bunda:

respublikada “Vatan taqdiriga daxldorlik tuyg‘usi, faol hayotiy pozitsiya” tamoyiliga asosan yangilangan CHQBT fanining o‘quv dasturi va darsliklarini yaratishi; ta‘lim tashkilotlarida CHQBT fani haftasiga ikki soatdan o‘qitilishini belgilashi; bunda tayanch o‘quv rejada 10-11-sinflarga haftasiga bir soatdan qo‘shimcha yuklama kiritishi;

b) Mudofaa vazirligi tizimida chaqiriqqa qadar boshlang‘ich tayyorgarlik rahbari lavozimini (keyingi o‘rinlarda- CHQBT rahbari) joriy etish va CHQBT rahbari lavozimiga Mudofaa vazirligi tomonidan Maktabgacha va maktab ta‘lim vazirligi hamda Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining hududiy bo‘linmalari bilan kelishgan holda oliy ta‘lim tashkilotlari harbiy ta‘lim fakultetlarining “Chaqiriqqacha harbiy ta‘lim” yo‘nalishi bitiruvchilarini, Qurolli Kuchlarning rezervi (zaxira)dagi oliy ma‘lumotga ega bo‘lgan oddiy askar, serjant, shuningdek, ofitserlar tarkibiga mansub kontrakt bo‘yicha harbiy xizmatchilarni ishga qabul qilishi;

d) CHQBT rahbarlarining harbiy malakasini vatanparvarlik yoʻnalishida mudofaa tizimida, pedagogik koʻnikmalarini taʼlim tizimida oshirishi;

e) CHQBT rahbarlarining faoliyati samaradorligini baholash koʻrsatkichlarini (KPI) ishlab chiqishi;

f) Mudofaa vazirligi hamda Maktabgacha va maktab taʼlimi vazirligining tegishincha mavjud shtat birliklari doirasida;

Mudofaa vazirligi markaziy apparati tarkibidagi Tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bosh boshqarmasi Yoshlar boʻlimi va “Vatan tayanchi” bolalar va oʻsmirlar harbiy vatanparvarlik harakati negizida Mudofaa vazirligi Chaqiruvga qadar boshlangʻich tayyorgarlik va yoshlar bilan ishlash departamenti (keyingi oʻrinlarda Departament)ni;

Maktabgacha va maktab taʼlimi vazirligi markaziy apparatida Vatanparvarlik va chaqiruvga qadar boshlangʻich tayyorgarlikni muvofiqlashtirish boʻlimini tashkil etishi;

g) respublikadagi har bir tuman (shahar)da bitta umumiy oʻrta taʼlim maktabi negizida bolalarni kichik yoshidan Vatanga cheksiz sadoqat ruhida, jismonan sogʻlom va maʼnaviy yetuk insonlar qilib tarbiyalashga yoʻnaltirilgan “Jasorat maktabi” faoliyatini yoʻlga qoʻyishi, bunda quyidagilar nazarda tutilishi:

sport turlari boʻyicha ushbu maktablarda “Barkamol avlod” bolalar maktablarining tarmoq toʻgaraklari faoliyatini yoʻlga qoʻyishi;

harbiy-sport musobaqalari, intellektual viktorinalar va koʻrik-tanlovlarni tashkil etishi; Qurolli Kuchlar tarkibiga kiruvchi vazirlik va idoralarning oliy harbiy va harbiylashtirilgan taʼlim tashkilotlarini oʻz faoliyat yoʻnalishidan kelib chiqqan holda “jasorat maktablari”ga uslubiy yordam koʻrsatuvchi muassasa sifatida biriktirish tizimini joriy etishi;

belgilanishicha;

a) 2025-yil 1-iyundan taʼlim tashkilotlaridagi Vatanparvarlik ruhida yoshlarni tayyorlash boʻyicha direktor oʻrinbosari- harbiy chaqiriqqacha tayyorgarlik rahbari lavozimi tugatilib, shtat birliklari Mudofaa vazirligiga oʻtkazilishi va ushbu shtat birliklari hisobidan CHQBT rahbari lavozimi joriy etilishi hamda CHQBT rahbari quyidagi vazifalarni amalga oshirishi;

Mudofaa vazirligi tomonidan biriktirilgan taʼlim tashkilotida yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, harbiy kasbga yoʻnaltirish, harbiy-sport musobaqalari va CHQBT fani mashgʻulotlarini tashkil etishi;

oʻquvchi-yoshlarni harbiy taʼlim muassasalariga saralash ishlarini olib borishi; “Vatan tayanchi” otryadi faoliyatini boshqarish hamda harbiy qism va poligonlarda amaliy mashgʻulotlar oʻtkazishi;

b) CHQBT rahbarlariga: umumiy oʻrta taʼlim tashkiloti oʻqituvchisining bazaviy tarif stavkasi belgilanishi;

qonunchilik hujjatlariga muvofiq, umumiy oʻrta taʼlim tashkilotlari xodimlari uchun belgilangan yillik mehnat taʼillari berilishi;

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son Farmonida belgilangan tartibda CHQBT rahbarlariga bazaviy hisoblash miqdorining 50 baravari miqdorida bir martalik boshlangʻich yordam puli va uy-joylarni ijaraga olganlik (ijarada turganlik) uchun bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdorida har oylik pulli kompensatsiya toʻlanishi;

d) 2025/2026-oʻquv yilidan boshlab har bir yangi tashkil etiladigan taʼlim tashkilotlari uchun 1 ta shtat birligidan iborat CHQBT rahbari lavozimi kiritib borilishi;

e) mudofaa vaziriga belgilangan tartibda Departamentning tashkiliy-shtat tuzilmasiga amaldagi shtatlar doirasida o'zgartirishlar kiritish huquqi berilishi;

“Jasorat maktablari” umumta’lim maktablari uchun harbiy vatanparvarlik yo‘nalishida tayanch maktab etib belgilanishi;

“Jasorat maktablari”da: matematika, CHQBT, tarix, jismoniy tarbiya, chet tili, fizika fanlari chuqurlashtirilgan holda o‘qitilishi;

o‘qish uchun o‘quvchilarni saralash beshinchi sinfdan boshlab amalga oshirilishi;

robototexnika, kelajak o‘yinlari, tibbiy tayyorgarlik, huquqiy savodxonlik, milliy sport o‘yinlari kabi to‘garak mashg‘ulotlari o‘tkazilishi;

o‘quv yili davomida ikki marta harbiy poligonlarda, har chorakda bir marta harbiy qismlarda amaliy mashg‘ulotlar olib borilishi;

“Jasorat maktablari”ga birlashtiriladigan CHQBT rahbarlariga ta’lim tashkiloti o‘qituvchisining bazaviy tarif stavkasi bilan birga tuman (shahar) mudofaa ishlari bo‘limlari fuqaro xodimlari uchun belgilangan mehnatga haq to‘lash, ustama haq, qo‘shimcha to‘lov, rag‘batlantirish va moddiy yordam ko‘rsatish shartlari ham tatbiq etilishi;

ta’lim tashkilotlarida yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda quyidagilar asosiy yo‘nalishlar etib belgilanganligi:

o‘quvchilarda xalqimizning ma’naviy-ma’rifiy qadriyatlariga, uning madaniyati va urf-odatlariga chuqur hurmatni, ularda halollik, vijdoniylik, vatanparvarlik, sadoqat, fidokorlik singari sifatlarni, shuningdek, milliy g‘urur tuyg‘ularini shakllantirish;

mamlakatimizning tarixi va boy madaniyati, buyuk ajdodlarimizning, eng avvalo, sohibqiron Amir Temurning bebaho merosi, Vatanimiz ozodligi va el-yurt tinchligi yo‘lida mardlik va jasorat ko‘rsatgan vatandoshlarimizning qahramonligi asosida O‘zbekiston xalqiga sodiq, qat’iy hayotiy qarashlar va faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lgan yoshlarni tarbiyalash; harbiylar hayotiga oid vatanparvarlikg‘oyasidagi qo‘llanmalar, film, ijtimoiy rolik, badiiy asar, turkum ko‘rsatuvlar yaratish;

ta’lim tashkilotlarida “Turon” maktab teatri tanlovini muntazam ravishda o‘tkazib borish;

o‘quvchilarda keng dunyoqarash, intellektual salohiyat, ijodiy va tahliliy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish, tabiiy va aniq fanlar, xorijiy tillar va zamonaviy axborot texnologiyalari bo‘yicha mustahkam bilimlarni shakllantirishi; shunday tartib o‘rnatiladiki, unga muvofiq:

a) ta’lim tashkilotlarida harbiy vatanparvarlik tarbiyasi quyidagi to‘rt bosqichda amalga oshirilishi:

maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilariga (3-6 yosh) oila, Vatan, milliy qadriyatlar haqidagi ilk tushunchalar o‘rgatilishi;

boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga (1-4-sinf) mustaqillik tushunchasi, davlat ramzlariga hurmat va intizom kabi hayotiy ko‘nikmalar singdirilishi;

o‘rta sinf o‘quvchilarida (5-9 sinf) huquqiy ong, milliy g‘urur, buyuk ajdodlarga munosib voris bo‘lish tuyg‘usi shakllantirilishi;

yuqori sinf o‘quvchilarida (10-11-sinf) harbiy xizmatga qiziqish va Qurolli Kuchlar bilan faxrlanish tuyg‘usi kuchaytirilishi;

b) ta’lim tashkilotlarida: o‘quvchilar o‘rtasida kibersport, dron va robototexnika, kelajak o‘yinlari bo‘yicha alohida tanlovlar hamda harbiy-sport musobaqalari o‘tkazilishi;

ziyolilar va nuroniylar ishtirokida "uch avlod uchrashuvlari" tashkil etilishi; harbiy xizmatchilar tomonidan motivatsion suhbatlar va mahorat darslari olib borilishi;

d) CHQBT rahbarlariga qonunchilikda belgilangan tartibda malaka toifalari berilishi;
shunday tartib o'rnatiladiki, unga muvofiq 2026/2027-o'quv yilidan boshlab:

a) Toshkent davlat pedagogika universiteti, Farg'ona davlat universiteti va Buxoro davlat pedagogika institutlarining "Chaqiriqqacha harbiy ta'lim" yo'nalishlariga qo'shimcha qabul kvotalari ajratilishi;

b) "Jasorat maktabi"ni a'lo baholar bilan tamomlagan har bir "Vatan tayanchi" otryadining a'zosi bo'lgan bir nafar o'quvchiga Mudofaa vazirligi tomonidan belgilanadigan tanlab olish tartibiga muvofiq oliy harbiy va harbiylashtirilgan hamda yuridik ta'lim muassasalariga o'qishga kirish uchun imtiyozli tavsianoma berilishi; quyidagilar:

O'quvchilarda Vatan himoyachisi bo'lishga mehr va havas uyg'otish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi 1-ilovaga muvofiq;

Ta'lim tashkilotlari negizida tashkil etiladigan "jasorat maktablari" hamda ularga birlashtirilgan vazirlik va idoralar ro'yxati 2-ilovaga muvofiq tasdiqlanlanganligi;

Mazkur qarorning 1-ilovasi bilan tasdiqlangan chora- tadbirlar dasturini to'liq va o'z vaqtida bajarilishini ta'minlash yuzasidan shaxsiy mas'uliyat tegishli vazirlik va idoralar hamda harbiy-ma'muriy sektorlarning rahbarlari zimmasiga yuklanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Tuman Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi (O.Xujayev), tuman Mudofaa ishlari bo'limi (R.Salimgariyev), manfaatdor boshqarma va idoralar bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 15-noyabrdagi PQ-393-son qarori talablari asosida ish tashkil etsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o'rinbosari J.Raximov zimmasiga yuklansin

Tuman hokimi



A.Mansurov